ATMOSFERA IFLOSLANISHI VA UNING MANBALARI

Zoxidov Xasanbo'y Baxodirjon o'g'li
Talaba Farg'ona politexnika instituti Farg'ona shahri

XX asrning ikkinchi yarmida atmosferaning ifloslanishi to'g'risidagi masala dolzarb global masalalardan biriga aylandi. "Atmosferaning ifloslanishi" tushunchasiga berilgan ko'plab ta'riflarni umumlashtirgan holda unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: atmosferaning ifloslanishi- atmosferaning quyi qatlamlarida kishilarning salomatligi, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun xavfli bo'lgan , tabiiy muhitning inson hayotiy va ishlab chiqarish faoliyati uchun nomaqbo'l yo'nalishlarda o'zgarishiga olib keladigan miqdordagi zararli moddalarning to'planishidir.

Atmosferaning tarkibi tabiiy va inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan (antropogen) omillar ta'sirida o'zgaradi.Tabiiy o'zgarishlar litosfera, gidrosfera va biosferadagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Masalan, vulkanlarning faoliyati, cho'llarda qumlarning to'zishi va uchirilishi, o'simliklarning gulchanglari, okeanlarning har xil tuz zarrachalari va boshqa chang zarrachalari atmosferada mavjud bo'lgan changlarning tabiiy manbalaridir.

Yerda odamning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda atmosferada antropogen o'zgarishlar va havoning ifloslanishi sodir bo'la boshladi. Atmosferaning mahalliy miqyoslarda ifloslaaaaaaanishi anchadan buyon ma'lum bo'lsada, XX asrda umumbashariy miqyosdagi dolzarb muammoga aylandi.

Kosmik tadqiqotlar atmosferaning 20 km va undan ham balandroq qismlari, ya'ni butun troposfera va stratosferaning quyi qismlari ifloslanganligini ko'rsatdi.Troposferaning quyi qatlamlariayniqsa sezilarli ifloslangan. Atmosferaning ifloslanishi antropogen manbalardan chiqarilayotgan gazlar (90% gacha) va aerozollar (10%) tufayli sodir bo'lmoqda.Gazdan va undagi muallaq erkin zarrachalardan , qattiq jismlarning zarrachalaridan va suyuqlik tomchlaridan tashkil topgan birikmaga aerosol (yunoncha air- havo;nemischa sol- erituvchi)deyiladi. Atmosferaga chiqariladigan gazlar va aerozollar tarkibida 160 ga yaqin zararli moddalar borligi aniqlangan.Sanoatda va aholiga xizmat ko'rsatish doirasida foydalaniladigan ko'pgina moddalar zaharli bo'lganligi tufayli ularni atmosferaga chiqarish jahon mamlakatlarining katta qismida ta'qiqlangan. O"zbekistonda ham havoda zaharli moddalarning miqdori maxsux sanitariya me'yorlari bilan tartibga solib turiladi.

Transport (lot. transportara eltish, tashish, harakatlanish) – atmosfera ifloslanishining asosiy antropogen manbasidir. Jahon avtomobil parkida hozirgi paytda 400 mln. ga yaqin avtomobillar bor.Temir yo'l, dengiz, daryo va aviatsiya transporti ham atmosferani ifloslovchi manbalardir. Masalan, 1 ta reaktiv motorli uchg'ich 1000km masofaga uchishda bir odam bir yilda iste'mol qiladigan kislorodni sarflagan holda atmosferani ham ifloslaydi. Sanoat korxonalari ham atmosferani ifloslovchi ulkan manbalardir. Ayniqsa qora va rangli metallurgiya , sement sanoati , koks ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati, neft va kimyo sanoatining ulushi atmosferani ifloslashda juda katta. Sanoat korxonalari atmosferaga chiqindilar bilan birgalikda turli kimyoviy tarkibga ega bo'lgan changlarni ,tutun, oltingugurt angidridi, uglerod birikmasi, ftor, azot, xlor va boshqa zararli moddalarni chiqaradi. Issiqlik elektr markazlari ham atmosferani ifloslaydigan katta miqdordagi zararli moddalarni ajratadi. Yoqilg'ining to'liq yonmasligi sababli atmosferaga chala yongan yonilg'ining juda katta miqdordagi qattiq zarrachalari, kul, zararli gazlar (uglerod, oltingugurt azot birikmalari, qorakuya,tutun,chang va b.) chiqariladi. Is gazi (CO) va oltingugurt (SO_2) gazi atmosferani ifloslovchi asosiy gazlardir. Is gazi atmosferaga tushadigan gazlarning 1/3 qismini, oltingugurt gazi esa 1/8 qismini tashkil etadi. Atmosferaga tushadigan

gazlar va aerozollarning miqdori unga tabiiy manbalardan tushadigan miqdorga teng yoki ko‘proqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13733-atmosfera-ifloslanishi-va-uning-manbalari**
2. https://hydromet.uz/uz/node/2505
3. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/ekologiya/atmosfera-havosi-ifloslanishi-global-muammo

WORDLY KNOWLEDGE